

BOLALAR KINOSI

*Temirova Sarbina-Bonu**Mirsoliyeva Durdona**O'zbekiston Davlat San'at va Madaniyat Instituti**Farg'ona mintaqaviy filiali Qo'g'irchoq teatr aktyorligi**4-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Bolalar va o'smirlarga mo'ljallangan badiiy, o'quv, hujjatli xronikal, multiplikatsion filmlar haqidagi bazi bir ma'lumotlar, qiziqarli faktlar, milliylik va boshqalar haqida quyida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: sarguzasht, film, taraqqiyot, fantaziya, o'zbek, milliy, xalqining, kinematografik, janr, tarixiy, zamonaviy, muammolar, ifoda, iqtidorli, qator, uyushmasi, multfilm.

Bolalar kinosi — bolalar va o'smirlarga mo'ljallangan badiiy, o'quv, hujjatlixronikal, multiplikatsion (rasmli va qo'g'irchoq) filmlar. Bolalar qiziqadigan mavzular aks ettiriladi, film mazmuni ularning ruhiyati va tiliga yaqin, yoshi va tushunchasiga moye bo'ladi. Bolalar kinosi da (teatrdan farqli) bolalar rolini shu yoshdagi bolalar o'ynaydi. Kino san'atining maxsus sohasi sifatida 1920—30- yillarda ajralib chikdi.

O'zbekistonda birinchi Bolalar kinosi ("Qilich", rej. Y.A'zamov) 1935-yilda yaratildi. O'zbek Bolalar kinosi birinchi qadamidanoq zamonaviy mavzuga murojaat etdi. Ovozsiz bu filmda yoshlarni texnikani egallashga chorlash mavzusi ko'tarilgan. Shundan so'ng uzoq yillar mobaynida Bolalar kinosi ishlanmadi. Zamonaviy ertak janridagi "Paxtaoy" (K. Yormatov, 1952) birinchi o'zbek ovozli Bolalar kinosi bo'lib, unda o'zbek xalqining milliy boyligi paxtadan nimalar olinishi haqidagi ilmiy dalillar ertak asosida yoritilgan. Filmning tasviriy vositalari o'sha davr texnikasidan o'zib ketgan, bunga mualliflarning izchil izlanishlari, boy fantaziyasi, kinematografik ixtirolari tufayli erishilgan. 1957-yilda sarguzasht janrida "Sahrodagi voqea" (3. Sobitov) filmi yaratildi. 60- yillar o'zbek Bolalar kinosi taraqqiyotida yuksalish davri bo'ldi. "Sen yetim emassan", "Toshkent — non shahri" (Sh. Abbosov, 1962, 1967), "Nafosat" (E. Eshmuhamedov, 1966), "Olmos" (D. Salimov, 1966) kabi filmlar suratga olindi. 70—80- yillarda o'zbek Bolalar kinosi ning mavzu va janr doirasi kengaydi. Ertak va sarguzasht janrlarida, tarixiy va zamonaviy mavzularda filmlar yaratilib, axloqiyma'naviy muammolar o'rta tashlandi. "Semurg", "Kundalik daftar, xat va birinchi sinf o'quvchisi" (H. Fayziyev, 1971, 1985), "Achchiq danak" (Q. Kamolova, 1974), "Poyga avtomobilidagi jasur bolalar", "Shum bola" (D. Salimov, 1975, 1977), "Komila" (M. Og'amirzayev, 1981), "Akmal, ajdarho va malika", "Akmalning yangi

sarguzashtlari" (Yu. Stepchuk, 1981, 1983), "Orzular og'ushida" (F. Zaynutdinov, 1986), "Unsinoy" (O. Ergashev, 1987), "Bir mavsumli daho" (S. Nazarmuhamedov, 1989) kabi filmlar shular jumlasidan.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach Bolalar kinosi da ham keskin burilish yasaldi. Milliy mavzu, xalqimizning milliy an'analari, vatanga mehruhabbatni ifodalovchi qator filmlar yaratildi. Filmlar o'zbek tilida suratga olina boshladi. Faol va iqtidorli, milliy ruhni, xalqchilikni ifoda etuvchi rej.larning yangi avlodi yetishib chiqdi. Qishloq bolalari hayotiga bag'ishlangan "Tangalik bolalar" (T. Yunusov, 1991), "Abdullajon" (3. Musoqov, 1991), "Kulol va xurmacha" (G. Bzarov, 1991), dramatik, detektiv elementlar bilan yo'g'rilgan zamonaviy, fantastik musiqali komediya "Tilsimoy — g'aroyib qizaloq" (M. Boymuhamedov, 1999) va "Kichkina tabib" (3. Musoqov, 1999) filmlari so'nggi yillardagi eng yaxshi filmlardan.

"O'zbekfilm" studiyasi O'rta Osiyoda birinchi bo'lib bolalarga mo'ljallangan qo'g'irchoq va rasmiy multiplikatsion filmlar ishlab chiqarmoqda. "6x6 kvadratida" (Yu. Petrov, D. Salimov, 1965) birinchi suratga olingan multfilmidir. 1978-yilda "O'zbekfilm" studiyasi qoshida rasmiy va qo'g'irchoq filmlari uyushmasi tashkil etilgan (1995-yildan "Animatsiya kinosan'ati uyushmasi" nomida). Mustaqillikdan keyin ayniqsa M. Mahmudov, S. Murodxo'jayeva, N. To'laxo'jayev, A. Sobirov, N. Smirnov, I. Krivosheeva, D. Botirova, S. Alibekov, D. Vlasov kabi rej.larning ijodi yanada kamol topdi. "Oymoma Bo'rsiq" (rej. N. Smirnov, 1998), "Bulbul" (M. Mahmudov, 1999; 4Xalqaro bolalar kinofestivalida 1 mukofot "Oltin baliq"ga sazovor bo'ldi), "Alpomish" (6 qismli, N. To'laxo'jayev, 1998—2001), "Yangi shoxcha va bahor yomg'iri haqida" (rej. S. Silka, 2000), "To'ti" (S. Murodxo'jayeva, 2000) va boshqa keyingi yillarning eng yaxshi multfilmlaridir.

2 qismli "Vaxt gullari" (rej. M. Zokirov), "Erkatoy" (rej. N. G'oziyeva) kabi telefilmlar ham bolalarga bag'ishlangan. 1993-yildan "O'zbekfilm" studiyasida bolalarga mo'ljallangan "Zumrasha" hajviyumoristik kinojurnal muntazam ravishda chiqa boshladi (badiiy rahbar A. Qobulov, 1997-yildan Yu. Roziqov).

Dunyoda maxsus studiyalar: Amerikada U. Disney studiyasi (1923), Rossiyada bolalar va o'smirlar uchun filmlar ishlab chiqaruvchi Markaziy kinostudiya tashkil etilgan. Shuningdek, Bolalar kinosi ko'pgina boshqa mamlakatlar (Bolgariya, Vengriya, Polsha, Fransiya, Yaponiya, Hindiston va boshqalar)da ham ishlanmoqda. "Mikki Maus" ("Kichik sichqon") haqidagi turkum, "Bembi", "Vinni Pux", "Senimi, shoshmay tur!" kabilar eng mashhur filmlardir. Solerno (Italiya), Xixon (Ispaniya), Eshpino (Portugaliya) kabi shaharlarda Xalqaro bolalar filmlari festivallari o'tkazilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sahna ma'naviyati (SH. Rizayev)
2. Sahna nutqi (U. Boltaboyeva)
3. Qo'g'irchoq teatr tarixi (M. Qodirov, S. Qodirova)
4. Qo'g'irchoq boshqarish asoslari (D.D.Abdullayev, L.D.Usmanova)

Foydalanilgan web-saytlar:

1. Tafakkur.net sayti
2. Ziyouz.com sayti
3. Qomus.info sayti
4. Saviya.uz sayti
5. Shosh.uz sayti
6. Vikipediya
7. Yoair.com sayti